



## O`zbekiston Respublikasi Sudyalarning Huquqiy Maqomi

**Abduvosidova Odina Bahodir qizi**

TDYU huzuridagi M.S. Vosiqova nomidagi  
akademik litseyning 2.8 – guruh talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola “O`zbekiston Respublikasi sudyalarning huquqiy maqomi” mavzusini o`rganadi. Sudlarga oid qonunchilikda asosida tahlil qilinadi va misollar keltiriladi. O`zbekiston Respublikasi sudyalarning hozirgi kunda qanday huquqlari, sudyalikka talablar, ularning majburiyatlari, ularga qanday imkoniyatlar, yangiliklar va boshqa ma`lumotlar muhokama qilinadi. Qonunda keltirilgan moddalar orqali fikr isbotlanadi. Sud va sudyalar haqida yetarlicha, izchil hamda oson tushuniladigan ma`lumot manbai ekanligi ko`rsatiladi.

**Kalit so`zlar:** Sudya, huquqiy maqom, sud tog`risidagi qonun, sudyalar oliy kengashi, konstitutsiya, vakolat, qasamyod.

### Kirish

Avvalo maqom to`g`risida ma`lumot beradigan bo`lsak, davlat idoralari, tashkilot, muassasa, xalqaro tashkilotlarning normativ akt bilan rasmiylashtirilgan huquqiy holati ular huquq va majburiyatlarning yig`indisi. Sudyalarning huquqiy maqomi ularning o`z vazifalarini mustaqil, adolatli va qonuniy asosda amalga oshirishni ta`minlashga qaratilgan qoidalar va tamoyillaridir.

Qolaversa, ommaviy subyektlar haqida ham aytib o`tsak, ommaviy subyektlar kimlar? Ular hokimiyat vakolatlari berilgan va ularni amalga oshiruvchi shaxs. Bunday shaxslarga Prezident, Bosh vazir, sudyalarni aytib o`tsak bo`ladi. Huquqiy maqom tushunchalarning turli belgilari bor. Bular: tegishli huquqiy maqomning tayinlash yoki



saylash orqali shakllanishi, ommaviy subyekt vakolatlari doirasi va vakolatlarni amalga oshirishning tartibi va usullari, ommaviy subyekt maqomiga ega bo'lgan shaxs faoliyatini tugatish tartibi va boshqa ommaviy subyektlar – davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi boshqa subyektlardan farqlash imkoniyatini beradigan tegishli ommaviy subyekt huquqiy holatidir. Sudyalarning moddiy ta'minoti bu sudyalarning ish haqi lavozim maoshidan, malaka darajasi, ko'p yillik xizmati uchun to'lanadigan ustama haqlardan iborat bo'lib, uning miqdori qonunchilik bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi sudyalari maqomini Konstitutsiya va tegishli Normativ huquqiy hujjatlar orqali sudyalarning mustaqilligi, sudyalari daxlsizligi, majburiyatlari va vakolatlari tartibga solinadi. Xususan, yangilangan konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi sudyalariining oliy kengashining maqomi sudyalari hamjamiyatining mustaqil organi sifatida belgilangan. Shuningdek, 'sudning qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi sudyaning lavozimidan ozod etish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas. Sudyalari muayyan ishlar bo'yicha hisobotdor bo'lmasligiga oid yangi normalar konstitutsiyaga bo'yicha kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 bob 130-140 moddalarida sud hokimiyati haqida bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari, Davlatimiz rahbari Shavkat.M.M tomomidan sudyalarning maqomi va sudyalari hamjamiyati organlari faoliyatining huquqiy asoslari hamdasud tizimini moliyalashtirish uchun mablag'lar ajratishda ularning ishtiroki, kafolatlari alohida qonunlar bilan belgilash fursati kelganini alohida ta'kidlab o'tildi. Sudyalari to'risidagi qonuning 8 bobi sudyalarning maqomi, ularning huquq va majburiyatlari keltirilgan. Ushbu qonunning 58-moddasida Sudyalari haqida. O'zbekiston Respublikasida sudyalari qonunga muvofiq odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslardir. O'zbekiston Respublikasida barcha sudyalari bir xil maqomga ega. Sudlari raislari, rais o'rinbosarlari ayni vaqtda sudyalardir. Sudyalarga malaka darajalari beriladi. Sudyalarga malaka darajalarini belgilash va berish tartibi ushbu Qonun bilan tasdiqlanadigan nizomda aniqlanadi. 60-



moddasida Sudyaning qasamiyoti haqida. Ilk bor sudyalik lavozimiga saylangan yoki tayinlangan shaxs quyidagi mazmunda qasamyod qiladi:

“Zimmamga yuklatilgan vazifalarni halol va vijdonan bajarishga, odil sudlovni faqat qonunga bo‘ysungan holda amalga oshirishga, sudyalik burchim va vijdonim buyurganidek beg‘araz, xolis va adolatli bo‘lishga tantanali qasamyod qilaman”. Sudya O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i oldida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat bayrog‘i oldida ham tantanali vaziyatda qasamyod qiladi. Sudyalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlisida qasamyod qiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudlarining sudyalari tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma‘muriy sudi rayosati majlisida qasamyod qiladi. Ilk bor lavozimiga saylangan yoki tayinlangan sudya o‘z vakolatlarini amalga oshirishga qasamyod qilganidan keyin kirishadi. 61- moddada Sudyaning huquqlari keltirilgan. Sudya quyidagi huquqlarga ega: mansabdor shaxslar va fuqarolardan odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z farmoyishlarining bajarilishini talab qilish;

mansabdor va boshqa shaxslardan odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotni olish;

odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning axborot tizimlaridan bepul asosda olish hamda shaxsga doir ma‘lumotlar mavjud axborot tizimlaridan foydalanish, shu jumladan masofadan turib foydalanish;

davlat organlarining, shuningdek boshqa tashkilotlarning axborot tizimlaridan odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan shaxsga doir ma‘lumotlarni fuqarolarning yozma rozilgisiz bepul asosda olish;

sudyalar hamjamiyati organlarini shakllantirishda va ular faoliyatida ishtirok etish; uyushmalarga birlashish.



Sudya qonunga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sudyaning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan talablari hamda farmoyishlarini so'zsiz bajarishi shart. Sudyaning talablari va farmoyishlarini bajarmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

62- moddada sudyaning majburiyatlari keltirilgan. Sudya:

O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#) va qonunlariga og'ishmay rioya etishi; fuqarolarning huquq va erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmati hamda mol-mulki, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashi;

o'z vakolatlarini amalga oshirishda, shuningdek xizmatdan tashqari munosabatlarda Sudyalik odobi kodeksi talablariga rioya etishi, sud hokimiyati obro'sini, sudyaning sha'ni va qadr-qimmatini tushirishi yoki uning beg'arazligi, xolisligi va adolatligiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatdan o'zini tiyishi;

korupsiyaning har qanday ko'rinishlariga va odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha faoliyatiga g'ayriqonuniy aralashishga urinishlarga qarshilik ko'rsatishi hamda bunday holatlar aniqlangan taqdirda bu haqda O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashiga xabar qilishi;

sud protsessi ishtirokchilarini hurmat qilishi;

o'z malakasini sudyalik vakolatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan darajada saqlab turishi;

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda o'zini o'zi rad qilishi va sud protsessi ishtirokchilarini xabardor qilishi shart.

Sudya:

sudyalarning maslahatlashuvi sirini va yopiq sud majlislarini o'tkazish chog'ida olingan ma'lumotlarni oshkor qilishga;



senator, davlat hokimiyati vakillik organlari deputati bo'lishga;

siyosiy partiya a'zosi bo'lishga, uni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga, siyosiy partiyalarning tadbirlarida ishtirok etishga, boshqa siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishga;

haq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga, bundan sudyaning vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilmaydigan pedagogik, ilmiy va boshqa ijodiy faoliyat mustasno;

shaxsan yoki ishonchli shaxslar orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga, shu jumladan xo'jalik yurituvchi subyektни boshqarishda, uning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, ishtirok etishga;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan chet el banklarida hisobvaraqlar (omonatlar) ochishga va ularga ega bo'lishga, naqd pul mablag'larini hamda qimmatliklarni saqlashga. Bunday cheklov sudyaning eriga (xotiniga) va voyaga yetmagan farzandlariga nisbatan ham amal qiladi;

jismoniy yoki yuridik shaxslarning ishlari bo'yicha sudda vakil bo'lishga (qonuniy vakillik hollari bundan mustasno);

sudda ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan sud hujjati qonuniy kuchga kirgunga qadar oshkora mulohazalar bildirishga;

qonunga muvofiq maxfiy axborot jumlasiga kiritilgan, sudyalik vakolatlarini amalga oshirishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni sudyalik vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda oshkor qilishga yoki foydalanishga haqli emas.

Sudyaning zimmasida qonunga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Ushbu moddalarda Sudyalar huquqlari, majburiyatlari, qasamyodni qanday qabul qilish to'g'risida, va boshqa ma'lumotlar keltirildi.

Ma'lumot o'rnida aytish lozimki, "Adolat" sotsial – demokratik partiyasi joriy yilda, bo'lib o'tadigan saylovlar oldidan sudyalar huquqlarini kafolatlash va ish yuklamalarini



maqbullashtirish maqsadida ‘Sudyalar maqomi to’risida’ O‘zbekiston Respublikasini qonunini ishlab chiqish tashabusini ilgari surmoqda. Partiya vakillarining fikricha, Polsha, Rossiya, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarda sudyalar maqomiga oid alohida qonunlar mavjud. Partiya O‘zbekistonda ham bunday qonun qabul qilinishi zarurligini ta’kidlaydi. ‘Sudyalar maqomi to’g’risida’gi qonunning qabul qilinishi bir qator muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi: Sudyalarning vazifalari va majburiyatlarini, qonun sudyalarning aniq vazifalari, huquq va majburiyatlarini belgilab beradi, ish yuklamalarini maqbullashtirish ya’ni sudyalarning ish yuklamalari qonun asosida tartibga solishdir., vakolat berish, ozod qilish tartibi, sudyalar lavozimiga tayinlanish va ishdan ozod qilinishi qonunda aniq tartibga solinadi. Tashqi ta’sirlardan himoya quyidagilardan iborat: 1- sudyalar har qanday tashqi ta’sirlardan himoya qilinadi, 2- qonun ularning mustaqil va adolatli qaror qabul qilishlari uchun zarur, 3- himoyani ta’minlaydi.

Ijtimoiy imtiyozlar esa: 1- sudyalarga nisbatan ijtimoiy imtiyozlar joriy etilishi, 2- korrupsiyaga qarshi choralar ko’rilishi. ‘Adolat’ sotsial demokratik partiyasining ma’lumotiga ko’ra, mazkur qonun loyihasi sud tizimini yanada mustahkamlash, sudyalar mustaqilligini ta’minlash va ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan. Sudyalar ish yuklamalarining maqbullashtirish esa sud ishlarini samarali tashkil etishga ko’maklashadi. Ushbu partiya a’zolarining aytishicha, ushbu qonun sud tizimiga ishonchni oshirishga va mamlakatda adolatni ta’minlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, sudyaning huquqiy maqomi uning mustaqilligi va daxlsizligi bilan chambarchas bog’liq, bu jihatlar adolatli sudlovni ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilik sudyalar mustaqilligini kafolatlashga qaratilgan. Sud hokimyatining mustahkamligi jamiyatda adolat tamoyillarining qaror topishiga xizmat qiladi, shu bois bu borada islohotlarini davom ettirish mumkin hisoblanadi. Sudyaning huquqiy maqomi uning huquq va majburiyatlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga sudyaning qonuniy majburiyatlarini uning xolis va odil bo’lishini talab qiladi. Shu o’rinda



‘Adolat’ sotsial demokratik partiyasi taklif qilayotgan yangi qonun loyihasi sudyalarning maqomini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada samarali qilishga qaratilgan. Shu sababli, sud hokimiyatining mustahkamligini va mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan har qanday qonunchilik tashabbuslari jamiyatdagi adolat va huquq ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. M.H.Rustamboyev, U.A.Tuxtasheva. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. 10-bob 273-bet.
2. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
3. O`zbekiston Respublikasi Sud to`grisidagi qonun.
4. O`zbekiston milliy axborot agentligi. M.Komilova, O`zA.